

**TADBIRKORLIKNI TARTIBGA SOLISHNING XALQARO TAJRIBASI:  
INSTITUTSIONAL YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR****Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich***Namangan davlat texnika universiteti  
“Menejment” kafedrasi dotsenti, i.f.n.***Alijanov Baxtiyor Baxodirjon o‘g‘li***Namangan davlat texnika universiteti  
“Menejment” yo‘nalishi magistri*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada xorij mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatini boshqarish va tartibga solishning institutsional hamda iqtisodiy jihatlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida AQSh, Yevropa Ittifoqi va Shveysariyaning 2024-2025 yillardagi yangilangan mezonlari, “Smart Finance” tizimi va hududiy boshqaruv modellari o‘rganilgan. Maqolada xorij tajribasi asosida milliy iqtisodiyotda tadbirkorlikni detsentralizatsiya qilish, innovatsion kuponlar tizimini joriy etish va raqamli ekotizimlarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflarni ilgari surilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *tadbirkorlik, institutsional muhit, boshqaruv mexanizmi, Shveysariya modeli, kantonal boshqaruv, innovatsion kuponlar, Smart Finance, raqamli transformatsiya, eksport kafolatlari, kichik va o‘rta biznes, iqtisodiy tartibga solish.*

**Аннотация:** *В данной статье проводится сравнительный анализ институциональных и экономических аспектов управления и регулирования предпринимательской деятельности в зарубежных странах. В ходе исследования изучены обновленные критерии 2024-2025 годов, система “Smart Finance” и модели регионального управления на примере США, Европейского Союза и Швейцарии. На основе зарубежного опыта выдвинуты практические предложения по децентрализации управления предпринимательством в национальной экономике, внедрению системы инновационных купонов и развитию цифровых экосистем.*

**Ключевые слова:** *предпринимательство, институциональная среда, механизм управления, швейцарская модель, кантональное управление, инновационные купоны, Smart Finance, цифровая трансформация, экспортные гарантии, малый и средний бизнес, экономическое регулирование*

**Abstract:** *This article provides a comparative analysis of the institutional and economic aspects of managing and regulating entrepreneurial activity in foreign countries. The study examines updated 2024-2025 criteria, the “Smart Finance” system, and regional management models using the examples of the USA, the European Union, and Switzerland. Based on*

*international experience, practical proposals are put forward for the decentralization of entrepreneurship management in the national economy, the introduction of an innovative coupon system, and the development of digital ecosystems.*

**Keywords:** *entrepreneurship, institutional environment, management mechanism, Swiss model, cantonal management, innovation coupons, Smart Finance, digital transformation, export guarantees, small and medium enterprises (SMEs), economic regulation*

**Kirish.** Bugungi global iqtisodiy transformatsiyalar davrida tadbirkorlik subyektlarini boshqarish va tartibga solishning samarali mexanizmlarini shakllantirish har bir davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi strategik ustuvorlikka aylandi. O'zbekiston Respublikasida ham mazkur sohaga davlat siyosatining eng yuqori bo'g'ini sifatida qaralmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Tadbirkorlikni rivojlantirish – biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam. Shu bois tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash markazdan tortib eng quyi bo'g'ingacha – barcha rahbarlarning kundalik ishi bo'lishi shart" [1]. Mazkur konseptual yondashuv tadbirkorlik muhitini nafaqat iqtisodiy, balki kuchli institutsional asosda qayta qurish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar sharoitida tadbirkorlikni boshqarishning an'anaviy usullari o'z samarasini yo'qotib, bozor mexanizmlarini institutsional tartibga solishning yangi modellariga ehtiyoj ortmoqda. Xususan, davlat va biznes o'rtasidagi munosabatlarni desentralizatsiyalash, ma'muriy to'siqlarni raqamlashtirish orqali bartaraf etish hamda hududiy boshqaruv organlarining tadbirkorlik subyektlari bilan bevosita muloqotini yangi sifat bosqichiga olib chiqish dolzarb ilmiy -amaliy masala hisoblanadi. Institutsional muhitning barqarorligi tadbirkorlik subyektlari uchun nafaqat huquqiy himoya, balki iqtisodiy resurslardan foydalanishda teng imkoniyatlar yaratuvchi fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorij mamlakatlarining bu boradagi boy tajribasini qiyosiy tahlil qilish, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan institutsional mexanizmlarning o'ziga xos jihatlarini o'rganish va ularning samarali elementlarini milliy iqtisodiyotimizga adaptatsiya qilish ushbu tadqiqot ishining asosiy yo'nalishini belgilaydi. Institutsional va iqtisodiy vositalarning o'zaro uyg'unligi tadbirkorlik muhitini boshqarishda nafaqat nazorat qilish, balki biznes subyektlarining innovatsion faolligini rag'batlantiruvchi muhit yaratish imkonini beradi.

**Asosiy qism.** Zamonaviy boshqaruv jarayonining nazariy-uslubiy asoslari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'rni bir qator tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lib, unda tadbirkorlikni boshqarishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlariga tizimli yondashilgan [2, 3]. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatida

boshqaruv metodlarini tartibga solish, qo‘yiladigan talablar va strategiyani shakllantirish usullari ilmiy asoslab berilgan [4, 5, 8]. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarida boshqaruvning umumiy va aniq funksiyalarini turkumlash hamda strategik boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha nazariy qarashlar rivojlantirilgan [6, 7]. Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda biznes-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish hamda eksportyor korxonalarini qo‘llab-quvvatlashdagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish masalalari soha mutaxassislari tomonidan dolzarb yo‘nalish sifatida tahlil qilingan [9, 10].

Tadbirkorlik subyektlarini boshqarishning milliy modelini takomillashtirish iqtisodiy rivojlangan davlatlarning ko‘p yillik institutsional tajribasini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Xalqaro amaliyotda tadbirkorlikni tartibga solish nafaqat moliyaviy dastaklar, balki bozor munosabatlari ishtirokchilari o‘rtasidagi huquqiy va ijtimoiy muvozanatni ta‘minlovchi murakkab mexanizmlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasida davlatning roli biznes faoliyatiga bevosita aralashishdan ko‘ra, tadbirkorlik uchun qulay ekotizim yaratish, standartlar orqali sifatni nazorat qilish va innovatsion infratuzilmani qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlikni boshqarishning “liberal” va “ijtimoiy” modellarini o‘zida mujassam etgan yetakchi xorijiy davlatlar, xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlari tajribasini o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida tadbirkorlik subyektlarini boshqarish va tartibga solish tizimi o‘zining ko‘p pog‘onali (federal va shtat darajasidagi) normativ tuzilishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy mas‘uliyatni qat‘iy belgilashi bilan ajralib turadi. AQSh modelining o‘ziga xos xususiyati shundaki, davlat biznesga erkinlik berish bilan birga, mehnat munosabatlari, ekologiya va reklama halolligi bo‘yicha qat‘iy institutsional cheklovlarni ham o‘rnatgan.

Mehnat munosabatlarini boshqarishning institutsional mexanizmini tadqiq etadigan bo‘lsak, AQSh iqtisodiy tizimida inson kapitalini muhofaza qilish tadbirkorlikni boshqarishning fundamental asosi hisoblanadi. AQSh Mehnat vazirligi (DOL) tomonidan 180 dan ortiq qonunlar ijrosining nazorat qilinishi, tadbirkorlik subyektlari uchun faqat majburiyat emas, balki mehnat bozorida adolatli raqobat muhitini yaratuvchi omildir. Bu yerda boshqaruv mexanizmi “ijtimoiy sheriklik” tamoyiliga asoslanib, ish vaqti, minimal ish haqi va diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik kabi standartlar orqali tadbirkorning mas‘uliyatini belgilaydi. Bu esa o‘z navbatida korxonalarda barqaror ishchi kuchi va yuqori mehnat unumdorligini ta‘minlovchi institutsional dastak bo‘lib xizmat qiladi.

Qo‘shma Shtatlarda ekologik va marketing standartlari — sifatli boshqaruv vositasi sifatida ishlaydi. AQSh tajribasida tadbirkorlikni tartibga solishning muhim yo‘nalishi — atrof-muhit muhofazasi va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilishdir. Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA) tomonidan amalga oshiriladigan “Toza havoning to‘g‘risida”gi (Clean Air Act) va boshqa qonunlar tadbirkorlik subyektlarini ekologik innovatsiyalarga

yo‘naltiradi. Marketing faoliyatida esa “haqqoniylik” tamoyilining o‘rnatilishi (Fair Packaging and Labeling Act), tadbirkorlar o‘rtasidagi raqobatni “yolg‘on reklama” emas, balki “mahsulot sifati” maydoniga ko‘chiradi. Bu tizim tadbirkorni o‘z brendini halollik asosida boshqarishga majbur qiluvchi iqtisodiy-huquqiy mexanizmdir.

Tadbirkorlikni Davlat tomonidan rag‘batlantirish va infratuzilmaviy boshqaruv tizimida Amerika modelida davlatning roli faqat nazorat qilish bilan cheklanmaydi. Kichik biznes ma‘muriyati (SBA) orqali amalga oshiriladigan “Kredit kafolatlari tizimi” davlatning tadbirkorlik xatarlarini o‘z zimmasiga olishini anglatadi. Shuningdek, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi “texnologiyalar transferi”ni moliyalashtirish hamda yirik infratuzilma loyihalarini davlat tomonidan qurilishi tadbirkorlik subyektlari uchun “tashqi iqtisodiy tejamkorlik” (external economies) muhitini yaratadi.

Lo‘nda qilib aytganda, AQShning tadbirkorlikni boshqarish modeli — bu nazorat va rag‘batning institutsional muvozanatidir. Undagi qat‘iy standartlar biznesning ijtimoiy mas‘uliyatini oshirsa, davlat grantlari va infratuzilmaviy ko‘magi uning innovatsion rivojlanishiga zamin yaratadi.

Yevropa Ittifoqi (YEI) mamlakatlarida tadbirkorlikni boshqarish tizimi o‘zining ijtimoiy yo‘naltirilganligi va yuqori darajadagi institutsional moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. YEI iqtisodiyotining 99,8 foizini tashkil etuvchi kichik va o‘rta biznes (KO‘B) subyektlari nafaqat iqtisodiy o‘‘sish drayveri, balki barqaror “o‘rta sinf”ni shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi.

Klassifikatsiya mezonlarining institutsional evolyutsiyasini o‘rganar ekanmiz, 2024-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangilangan mezonlar Yevropa Komissiyasining inflyatsion bosim sharoitida tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishga qaratilgan strategik yondashuvini ko‘rsatadi. Kichik korxonalar uchun yillik aylanma chegarasining 10 mln yevrodan 12,5 mln yevrogacha oshirilishi — bu shunchaki raqamlar o‘zgarishi emas, balki tadbirkorlarga o‘z imtiyozli maqomini saqlab qolgan holda o‘‘sish imkoniyatini beruvchi “institutsional himoya qalqoni”dir. Bu mexanizm korxonalarining nominal daromadi oshsa-da, ularning davlat qo‘llab-quvvatlash dasturlaridan chetda qolmasligini ta‘minlaydi.

“Avval kichiklar haqida o‘yla” (Think Small First) tamoyiliga ko‘ra, YEI mamlakatlari, xususan Italiya (99,9%) va Fransiya (99,8%) tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat boshqaruvi tizimi kichik biznes uchun ma‘muriy to‘siqlarni minimallashtirishga safarbar etilgan. Italiya modelidagi “hududiy klasterlar” boshqaruvi va Germaniyadagi “Mittelstand” (yuqori texnologik o‘rta korxonalar) tizimi tadbirkorlikni boshqarishda nafaqat miqdoriy, balki sifat ko‘rsatkichlariga ham urg‘u beradi. Ayniqsa, Italiyada bandlikning 75 foizdan ortig‘i ushbu sektor hissasiga to‘g‘ri kelishi — tadbirkorlikning ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashdagi qudratli vositasi ekanligidan dalolat beradi.

“Aqlli moliyalashtirish” (Smart Finance) va raqamli transformatsiya tizimi. 2016–2025-yillar oralig‘ida Yevropa davlatlari an’anaviy kreditlashdan “Smart Finance” tizimiga to‘liq o‘tdi. Ushbu mexanizmning o‘ziga xosligi shundaki, moliyaviy dastaklar endi faqat likvidlikni saqlashga emas, balki:

— “Yashil” va raqamli texnologiyalar - Germaniyaning KfW banki va Fransiyaning Bpifrance tizimi orqali innovatsion loyihalarga kafolatlar berish da;

— R&D imtiyozlari - Fransiyaning “CIR” tizimi kabi ilmiy-tadqiqot ishlari uchun soliq kreditlarini taqdim etish orqali kichik biznesni eksportga yo‘naltirishda ko‘rish mumkin.

Demak, Yevropa modeli tadbirkorlik subyektlarini boshqarishda “oilaviy tadbirkorlik” an’analarini saqlab qolgan holda, ularni yuqori texnologiyalar va global eksport zanjiriga integratsiya qilishning noyob mexanizmini yaratgan. Mazkur tajribaning institutsional elementlarini (ayniqsa, klasterli boshqaruv va ilmiy-tadqiqot imtiyozlarini) milliy iqtisodiyotimizga tatbiq etish strategik ahamiyatga ega.

Yevropa iqtisodiy makonida Shveysariya Konfederatsiyasi tadbirkorlikni boshqarishning o‘ziga xos “markazlashmagan (kantonal)” modeli bilan ajralib turadi. Mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi 99 foizdan ortiq kichik va o‘rta biznes (KO‘B) subyektlarining faoliyatiga tayanadi. SHveysariya tajribasining fundamental asosi — boshqaruv vakolatlarining federal markazdan ko‘ra ko‘proq mahmuriy birliklar (kantonlar) ixtiyorida ekanligidir.

Shveysariyada *kantonal boshqaruv va hududiy raqobat mexanizmini* tadqiqi shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlikni tartibga solish Iqtisodiyot bo‘yicha davlat kotibiyati (SECO) tomonidan muvofiqlashtirilsa-da, amaliy boshqaruv kantonlar darajasidagi Rivojlanish agentliklari tomonidan amalga oshiriladi. Bu tizimning o‘ziga xosligi shundaki, har bir kanton tadbirkorlarni jalb qilish uchun mustaqil ravishda soliq imtiyozlari va qo‘llab-quvvatlash paketlarini ishlab chiqadi. Bu hududlar o‘rtasida “ijobiy raqobat” muhitini yaratib, ma‘muriy yukni minimallashtirishga va tadbirkor uchun eng qulay sharoitlarni taklif qilishga xizmat qiladi.

“*Sifat miqdordan ustun*” tamoyili va *innovatsion boshqaruv*. 2020–2025-yillar ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, mikrokorxonalar ulushi 89,8 foizga yetgan bo‘lsa-da, davlat boshqaruvi asosiy e‘tiborni “innovatsion tarkib”ga qaratadi. Kanton hokimiyatlari imtiyoz berishda loyihaning yangi ish o‘rinlari yaratishi, yuqori qo‘shilgan qiymatga egaligi va “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga mosligini eng muhim mezon sifatida belgilagan. Ayniqsa, tadqiqotchilar ish haqini subsidiyalash mexanizmi — davlatning inson kapitalini boshqarishdagi strategik dastagi hisoblanadi.

Shveysariyada *moliyaviy daxldorlik va davlat kafolatlari transformatsiyasi*. Shveysariya modelida tadbirkorlikni moliyaviy tartibga solish bank tizimi bilan uzviy

bog‘liq. 2021–2025-yillar oralig‘ida KO‘B kreditlarining umumiy kreditlar portfelidagi ulushi 81 foiz darajasida barqarorlashgan. Davlatning roli bu yerda to‘g‘ridan-to‘g‘ri pul berish emas, balki “Tijorat kafolatlari” (1 mln frankkacha) orqali tadbirkorlik xatarlarini sug‘urtalashda namoyon bo‘ladi. Bu tizim bank sektori va real sektor o‘rtasidagi “ishonch ko‘prigi”ni mustahkamlab, iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi.

*Ijtimoiy-hududiy muvozanatni saqlash dasturlari.* Shveysariyaning “Yangi hududiy siyosati” iqtisodiy jihatdan past rivojlangan va tog‘li hududlardagi tadbirkorlikni alohida boshqarish tizimini nazarda tutadi (1.3.6-jadval). Bu yerda davlat iqtisodiy vazifalarni ijtimoiy maqsadlar bilan birlashtiradi: isholsiz shaxslarni tadbirkorlikka jalb qilish uchun 200 ming frankkacha kafolatlar berilishi — ijtimoiy yukni kamaytirishning samarali institutsional yechimidir.

### 1-jadval

**Kichik va o‘rta biznes uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishning xalqaro tajribasi**

Davlat dastklari	Mamlakatlar
Kichik va o‘rta tadbirkorlik kreditlari bo‘yicha kafolatlar	YeI davlatlari, Shveysariya, Turkiya
Startaplar uchun maxsus kafolat shartlari	Estoniya (KredEx), Shveysariya, Frantsiya (Bpifrance), Niderlandiya
Eksport operatsiyalari uchun davlat kafolatlari	Germaniya (Hermes), Shveysariya (SERV), Shveysariya, Finlyandiya
Davlat tomonidan birgalikda moliyalashtirish	Shveysariya, Daniya, Irlandiya (Venchr kapitalini jalb qilgan holda)
Foiz stavkalarini subsidiyalash	Vengriya, Portugaliya, Turkiya, Polsha
Soliq imtiyozlari va ITTKI (R&D) chegirmalari	Frantsiya, Shveysariya, Italiya, Buyuk Britaniya

Kichik va o‘rta biznes uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishning xalqaro tajribasi shuni ko‘rsatadiki tadbirkorlik faoliyatini kafolati avvalgi 500 ming franklik limit hozirda 1 million frankka yetkazilgan. Bu pandemiyadan keyin tadbirkorlarga ko‘proq likvidlik berish maqsadida qilindi. Innosuisse kuponlari – Shveysariya hozirda kichik va o‘rta tadbirkorlikka 5000 dan 10000 frankkacha bo‘lgan “Innovatsion kuponlar” beradi. Bu pul bilan tadbirkor universitetlardan ilmiy maslahat olishi mumkin. Yashil moliyalashtirish bunda, yangi dasturlarda ekologik loyihalar (quyosh panellari, energiya tejamkorlik) uchun kredit foizlarini davlat tomonidan 100% qoplab berish mexanizmlari qo‘shildi. Raqamli EasyGov, endilikda barcha ma’muriy jarayonlar va imtiyozlarga ariza berish EasyGov.swiss

portali orqali onlayn formatga o‘tgan.

Tadqiqot doirasida o‘rganilgan mamlakatlar tajribasini tizimlashtirish maqsadida, tadbirkorlikni boshqarishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlari bo‘yicha quyidagi qiyosiy tahlil jadvali shakllantirildi.

**2-jadval**

**Tadbirkorlik subyektlarini tartibga solishning xalqaro modellarining qiyosiy tavsifi**

<b>Tahlil mezonlari</b>	<b>AQSh modeli</b>	<b>Yevropa Ittifoqi modeli</b>	<b>Shveysariya modeli</b>
Boshqaruv paradigmasi	Liberal-himoyalovchi (Standartlar orqali tartibga solish)	Ijtimoiy-yo‘naltirilgan (Klasterli yondashuv)	Detsentralizatsiyalashgan (Kantonal raqobat)
Asosiy institutsional drayver	SBA (Kichik biznes ma‘muriyati) va Federal agentliklar	Yevropa Komissiyasi va milliy agentliklar	SECO va Kantonal rivojlanish agentliklari
Iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash markazi	Kredit kafolatlari va infratuzilmaviy grantlar	Soliq imtiyozlari va R&D subsidiyalari	Innovatsion kuponlar va hududiy soliq preferensiyalari
Raqamlashtirish darajasi	Yuqori (Shtatlararo integratsiya)	O‘rta-yuqori (Yagona raqamli bozor)	Eksklyuziv (EasyGov portalining integratsiyasi)
O‘ziga xos mexanizm	Mehnat va ekologik qat‘iy standartlar	“Think Small First” (Avval kichiklar haqida o‘yla) tamoyili	To‘g‘ridan-to‘g‘ri federal soliq imtiyozlari (10 yilgacha)

Yuqoridagi qiyosiy jadval ma‘lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda tadbirkorlikni boshqarish tizimi yagona shablona emas, balki milliy iqtisodiyotning institutsional tuzilishiga moslashgan. Agar AQSh modelida boshqaruv mexanizmi ko‘proq federal standartlar va mehnat bozorini tartibga solish orqali "o‘yin qoidalari"ni belgilashga qaratilgan bo‘lsa, Yevropa Ittifoqi modelida asosiy urg‘u kichik biznesni ijtimoiy kapital

sifatida asrash va klasterlashtirishga yo‘naltirilgan. Bu yerda davlat boshqaruvi tadbirkomi yirik korporatsiyalar bilan teng huquqli subyekt sifatida institutsional himoya qilishni strategik maqsad qilib oladi.

Eng diqqatga sazovor jihati shundaki, Shveysariya modeli boshqaruvning detsentralizatsiyalashgan (markazlashmagan) tabiati bilan ajralib turadi. Kantonal agentliklar va tadbirkorlar o‘rtasidagi bevosita muloqot mexanizmi, shuningdek, "Innovatsion kuponlar" kabi moliyaviy dastaklar tadbirkorlik subyektlarining nafaqat sonini, balki ularning sifat tarkibini (texnologik darajasini) oshirishga xizmat qiladi. Demak, xorij tajribasi shuni tasdiqlaydiki, tadbirkorlikni boshqarish samaradorligi davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuvi bilan emas, balki qulay institutsional muhit va moslashuvchan iqtisodiy rag‘batlar muvozanati bilan belgilanadi.

Tadbirkorlikni boshqarishning xalqaro modellarini yanada kengroq tahlil qilish maqsadida, yetakchi davlatlarning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasini qiyoslaymiz.

### 3-jadval

**Yetakchi davlatlar iqtisodiyotida kichik va o‘rta biznesning tutgan o‘rni (2022–2024 yy. holatiga ko‘ra)**

Mamlakat / Hudud	Korxonalar sonidagi ulushi, %	Bandlikdagi ulushi, %	YaIMdagi ulushi, %	Eksportdagi ulushi, %
AQSh	99,9	46,4 – 47,2	43,5 – 44,0	32,0 – 33,5
Yevropa Ittifoqi	99,8	66,5 – 67,5	52,0 – 53,5	48,0 – 50,0
Xitoy	98,5 – 99,0	79,0 – 81,0	60,0 – 61,5	58,0 – 60,0
Rossiya	99,1	38,0 – 40,5	21,0 – 22,5	9,0 – 11,0

Jadval ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlikni boshqarish samaradorligi bo‘yicha Xitoy modeli dunyoda eng yuqori natijalarni qayd etmoqda. Xususan, Xitoyda bandlikning 79-81 foizi va eksportning qariyb 60 foizi kichik va o‘rta biznes hissasiga to‘g‘ri kelishi, mazkur mamlakatda tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi "eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish" zanjiriga to‘liq integratsiyalashganini isbotlaydi. Bu esa tadbirkorlikni nafaqat ijtimoiy sektor, balki mamlakatning tashqi iqtisodiy qudratini belgilovchi asosiy drayver sifatida boshqarish strategiyasining natijasidir.

AQSh va Yevropa Ittifoqi ko‘rsatkichlari barqarorlikni saqlab qolgan holda, iqtisodiyotning "oltin o‘rtaligi"ni ifodalaydi. Biroq, Rossiya tajribasida kichik va o‘rta biznesning YaIMdagi ulushi (21,0-22,5%) va eksportdagi ishtiroki (9-11%) nisbatan pastligi kuzatiladi. Bu holat iqtisodiyotda yirik xomashyo sektorining ustunligi hamda kichik biznesni

institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimi hali transformatsiya bosqichida ekanligini anglatadi. Demak, O‘zbekiston uchun tadbirkorlikni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda Xitoyning "eksport va bandlik" hamda Yevropaning "ijtimoiy himoya va barqarorlik" modellarining kombinatsiyasidan foydalanish eng maqbul yo‘l hisoblanadi.

Xorij tajribasi va global ko‘rsatkichlar tahlili O‘zbekistonda tadbirkorlikni boshqarish tizimida hali o‘z yechimini kutayotgan bir qator institutsional va iqtisodiy muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, quyidagi tizimli ziddiyatlarni alohida ko‘rsatib o‘tish joiz:

1. *Boshqaruvning markazlashganligi.* Shveysariyadagi kantonal (hududiy) erkinlikdan farqli o‘laroq, bizda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va imtiyozlar berish tizimi hali ham kuchli markazlashgan. Bu hududlarda o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda "moslashuvchan boshqaruv" qarorlarini qabul qilishni cheklamoqda.

2. *Eksport drayveri sifatidagi sust ishtirok.* Xitoyda kichik biznes eksportning 60 foizini ta‘minlayotgan bir paytda, milliy amaliyotimizda tadbirkorlik subyektlari asosan ichki iste‘mol bozori bilan cheklanib qolmoqda. Buning asosiy sababi — xorijdagidek (Germaniyaning "Hermes" tizimi kabi) kuchli institutsional eksport kafolatlari va sug‘urtalash mexanizmlarining yetarli emasligidir.

3. *Innovatsion passivlik.* Shveysariyadagi "Innovatsion kuponlar" kabi ilm-fan va biznesni bog‘lovchi moliyaviy dastaklarning yo‘qligi natijasida, mahalliy tadbirkorlarning texnologik yangilanish darajasi pastligicha qolmoqda. Tadbirkor va universitet o‘rtasidagi aloqa institutsional emas, balki ko‘proq rasmiy xarakterga ega.

4. *Raqamli boshqaruvdagi uzilishlar.* Garchi "yagona darcha" tizimi joriy etilgan bo‘lsa-da, mahmuriy jarayonlar va imtiyozlarga ariza berish tizimi Shveysariyaning "EasyGov" portali darajasidagi to‘liq integratsiyalashgan raqamli ekosistemaga ega emas.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida aniqlangan muammolar va xorijning ilg‘or modellari o‘rtasidagi farqlar, milliy iqtisodiyotimizda tadbirkorlikni boshqarishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini transformatsiya qilish zarurligini asoslaydi. Mazkur muammolarni tizimli hal etish maqsadida quyidagi yakuniy xulosa va takliflarni ilgari suramiz:

Xorij tajribasining qiyosiy tahlili va milliy iqtisodiyotdagi holatdan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

— *"Innovatsion kuponlar" va ilmiy kooperatsiya mexanizmini joriy etish (Shveysariya tajribasi).* Tadbirkorlik subyektlariga Oliy ta‘lim muassasalaridan ilmiy-texnik ishlanmalar va konsalting xizmatlarini sotib olish uchun 10 mln dan 25 mln so‘mgacha bo‘lgan maqsadli "Innovatsion kuponlar" ajratish tizimini yo‘lga qo‘yish. Bu – ilm-fan va biznes o‘rtasidagi institutsional uzilishni bartaraf etib, kichik biznesning texnologik darajasini oshiradi;

— *eksport faolligini institutsional sug‘urtalash (Xitoy va Germaniya tajribasi).* Kichik va o‘rta biznesning eksportdagi ulushini Xitoy modeli asosida oshirish uchun, eksport

shartnomalari bo‘yicha to‘lovlarni davlat tomonidan kafolatlash (Hermes modeli kabi) tizimini kuchaytirish. Bunda eksportyor tadbirkorning tashqi bozordagi xatarlarini 90 foizgacha davlat sug‘urta jamg‘armalari hisobidan qoplash mexanizmini joriy etish lozim;

— *integratsiyalashgan “EasyGov.uz” raqamli ekotizimini yaratish.* Shveysariyaning "EasyGov.swiss" tajribasi asosida, tadbirkorlik faoliyatini ro‘yxatdan o‘tkazishdan tortib, imtiyozli kredit olish va eksport bojxona deklaratsiyalarini to‘ldirishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni yagona raqamli platformaga birlashtirish. Bu – boshqaruvda inson omilini kamaytirib, mahmuriy to‘siqlarni minimallashtiradi.

— *hududiy (Kantonal) soliq avtonomiyasini joriy etish.* Namangan viloyati misolida, hududiy hokimiyat organlariga innovatsion va "yashil" texnologiyalarga asoslangan korxonalar uchun mahalliy soliqlar (mol-mulk, yer solig‘i) stavkalarini mustaqil ravishda pasaytirish yoki 10 yilgacha ozod qilish vakolatini berish. Bu – hududlar o‘rtasida investitsiyalar uchun sog‘lom raqobatni yaratadi.

— *“Smart Finance” – maqsadli likvidlik mexanizmi.* Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari tomonidan kredit kafolatlari miqdorini (Shveysariyadagi kabi 1 mln frankkacha bo‘lgan limit andozasida) keskin oshirish. Mablag‘larni shunchaki tarqatish emas, balki faqat raqamli transformatsiya va energiya tejamkorlikka yo‘naltirilgan loyihalar uchun 100 foizlik foiz subsidiyalarini taqdim etish.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Тadbirkorнинг ютуғи – бутун халқимизнинг ютуғи: Фаол тadbirkorлар билан видеоселектор тарзидаги учрашувдаги нутқ. 20.12.2024 й. // [Электрон ресурс]. URL: [www.president.uz](http://www.president.uz) (Мурожаат санаси: 28.04.2026).

2.Эргашева, Ф. И. (2023). ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ЖАРАЁНИДА БОШҚАРУВНИНГ АСОСИЙ МАСАЛАЛАРИ. *FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"*, 14(1).

3. Эргашева, Ф. И. (2023). БОШҚАРУВ ЖАРАЁНИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ: МУММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР. *FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"*, 14(1).

4. Nabijanovich, D. B. (2023). BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA BOSHQARUVNI TARTIBGA SOLISH USULLARI. *NIDERLAND" INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"*, 14(1).

5. Nabijanovich, D. B. (2023). BOSHQARUV JARAYONI MAQSADLARI VA UNGA

QO‘YILADIGAN TALABLAR. NIDERLAND" INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION", 14(1).

6. Nabijanovich, D. B., & Axadbek o‘g‘li, R. A. (2023, May). BOSHQARUVNING UMUMIY VA ANIQ FUNKTSIYALARI: MOHIYATI VA TURKUMLASH MEZONLARI. In " CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES (Vol. 9, No. 1).

7. Nabijanovich, D. B. (2023, May). STRATEGIYA VA STRATEGIK BOSHQARISH: ILMIIY YONDASHUVLAR VA XUSUSIYATLAR. In " CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES (Vol. 9, No. 1).

8. Nabijanovich, D. B. (2023, May). TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA BOSHQARUV STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. In " USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE (Vol. 8, No. 1).

9. БН Дедажанов, ФИ Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТЬ В НАУКУ № 3 (27) 2019.

[https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%202019.pdf#page=24)

10. Dedajanov B.N. Alijanov B.B. Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda biznes-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish ahamiyati. Volume 2, Issue 4 CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY/WASHINGTON/THE USA. 503-509. <https://tijst.org/index.php/USA/issue/view/31>